

LIRIK TUR VA UNING MUMTOZ ADABIYOTDA TUTGAN O‘RNI

Setora Kuanishbayeva

*Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy
tillar fakulteti O‘zga tillarda o‘zbek tili
yo‘nalishi talabasi*

***Annotatsiya:** Lirikada ko‘proq tuyg‘ular, kechinmalar tasvirlanadi. Lirik turga kiruvchi asarlar kichik hajmli bo‘lishiga qaramay, turmushni badiiy, obrazli aks ettirishning barcha xususiyat va belgilariga ega hisoblanadi.*

***Kalit so‘zlar:** Lirika, tuyg‘u, inson, obraz, asarlar.*

Badiiy adabiyotning uzoq asrlik taraqqiyoti davrida xilma-xil asarlar yaratilgan bo‘lib, badiiy asarlar shakl va hajm jihatidan bir-birida farq qilgan, ya‘ni badiiy asarlarning shakl va hajm jihatidan farq qilishiga qarab adabiy turlarga ajratilgan. Adabiy asarlarning nutqiy tashkillanishi, tasvir predmeti, obyekt va subyekt munosabati kabi jihatlari bilan umumiylik kasb etuvchi yirik guruhga adabiy tur deyiladi. “Janr” so‘zi fransuzcha so‘z bo‘lib, “tur”, “jins” degan ma‘noni anglatadi. Adabiy tur va janrlar badiiy adabiyotdagi asarlarning shakliga, tuzilishiga, ijodkorning hayotni tasvirlash uslubiga ko‘ra ajratiladigan adabiy nazariy tushuncha deb aytiladi. Biz an‘anaviy ravishda badiiy asarlarni uchta katta guruhga: epik, lirik va dramatik turlarga ajratib o‘rganamiz.

Turli adabiy turga mansub asarlar o‘zaro badiiy vaqt hissi nuqtayi nazaridan ham farqlidir. Masalan, lirik asarlar “hozir ko‘ngildan kechayotgan” his-tuyg‘ularni tasvirlashi bilan xarakterlanadi. Aytaylik, A.Navoiyning “Kelmadi” radifli g‘azali yozilganiga 500 yildan ziyod vaqt bo‘lgan. Shunga qaramay, uni o‘qigan she‘rxonda lirik qahramon kechinmalari ayni hozir ko‘ngildan kechayotgandek tuyuladi, g‘azalni qachon o‘qishidan qat‘i nazar, o‘quvchi lirik qahramon kechinmalarini u bilan birga “hozir” ko‘ngildan kechiradi. Demak, yuqtirayotgan kechinma orasida har vaqt “men –hozir” tarzidagi vaqt hissi mavjud bo‘ladi. Buning ziddi o‘laroq, epik asarda “o‘tmishda bo‘lib o‘tgan” voqealar qalamga olinadi, negaki, zamonda kechib yuz berib bo‘lgan voqealarnigina hikoya qilib berish mumkin bo‘ladi. Hatto olis kelajak qalamga olingan fantastik badiiy asarlarda ham muallif yuz berib bo‘lgan voqealarni hikoya qiladi, o‘quvchi go‘yo yuz berib bo‘lgan voqealar bilan tanishadi. Demak, epik asarda yozuvchi bilan u tasvirlayotgan badiiy voqelik, o‘quvchi bilan u tasavvurida qayta tiklayotgan badiiy voqelik o‘rtasida hamisha “men – o‘tmish” tarzidagi vaqt hissi mavjuddir. Vaqt hissi nuqtayi nazaridan dramatik turga mansub asarlar o‘ziga xos xususiyatga ega. Dramatik asarda tasvirlanayotgan voqea go‘yo “hozir sodir bo‘layotgan voqea” kabi taassurot qoldiradi. Masalan, yaratilganiga ikki

yarim ming yil bo'lgan "Shoh Edip"ni o'qiganimizda, uning voqealari tasavvurimizdagi "sahna" asarida hozir sodir bo'layotgan voqeadek jonlanadi va ko'zga tashlanadi, ayni shu asar teatr sahnasida qo'yilganda ham tomoshabinlar nazdida ular hozir sodir bo'layotgandek tuyuladi. Demak, dramatik asar o'quvchisi (yoki tomoshabini) bilan unda tasvirlangan voqea orasida ham "men – hozir" tarzidagi vaqt hissi mavjud bo'ladi.

Adabiy turlar ichida lirik tur muhim ahamiyatga ega. Lirik (yunoncha so'zdan olingan bo'lib, "cholg'u asbobi" degan ma'noni bildiradi) adabiy tur sifatida qadimdan shakllangan. U o'zining bir qator xususiyatlariga egadir. Lirikaning belgilovchi xususiyati sifatida uning tuyg'u-kechinmalarni tasvirlashi olinadi. Lirik turning epik turdan farqi shundaki, epik turning asosida voqea turadi. Epik turning predmeti bu voqeadir. Endi lirik turda esa his-hayajon, tuyg'u va kechinmalar birinchi o'rinda turishini hammamiz bilamiz. Lirikada voqea muhim emas, unda shoirning his-tuyg'ulari va kechinmalari birinchi o'rinda turadi. Ya'ni shoir hayotdan olgan taassurotlariga o'z munosabatini bildiradi, qalbidan o'tkazadi. Epik turda esa voqealarni tasvirlab beradi. Ana shu masalalar bo'yicha lirik tur epik turdan farq qiladi. Lirikada ko'proq tuyg'ular, kechinmalar tasvirlanadi. Lirik turga kiruvchi asarlar kichik hajmli bo'lishiga qaramay, turmushni badiiy, obrazli aks ettirishning barcha xususiyat va belgilariga ega hisoblanadi. Lirik turning quyidagi janrlari mumtoz adabiyotda eng ko'p qo'llanuvchi turlari: g'azal, murabba' qasida, muxammas, musaddas, musamman, ruboiy, qit'a, tuyuq, lug'z, chiston.

Ma'lumki, she'riyatimizda faol ishlatilgan ayrim janrlar (g'azal, ruboiy, qit'a, qasida va boshqalar), shuningdek, xorijiy adabiyotlardan o'zlashgan turg'un she'riy shakllar (sonet, rondo, tanka, xokku va boshqalar) hozirgi she'riyatda ham oz bo'lsa-da qo'llanadi. Buning ustiga, adabiyotshunos faqat hozirgi adabiyotni o'rganish bilan cheklanmaydi, u ayniqsa, nazariy masalalarni o'rganish va xulosalar chiqarish jarayonida umuman jahon adabiyoti materialiga tayangan holda ish olib boriladi. Shunga ko'ra, o'zbek she'riyatida qo'llanilgan she'riy janrlarni, bizningcha, tubandagicha janr turlariga ajratish mumkin: 1) shakl xususiyatlariga ko'ra (bandning tarkiblanishi, qofiyalanish tartibiga ko'ra) ajraluvchi janrlar: g'azal, mustazod, muxammas, tuyuq, ruboiy, tarjiband, tarkibband; 2) anjumanga mo'ljallangan janrlar: nazira, muammo, chiston (lug'z); 3) xorijiy adabiyotlardan o'zlashgan janrlar: sonet, xokku, tanka, oktava, oq she'r, epigraf; 4) hozirgi she'riyat janrlari: avtopsixologik lirika, ijroviy lirika, tavsifiy lirika, voqeaband lirika hisoblanadi.

Lirikaning asosiy obrazi bu lirik qahramon (ba'zan u lirik subyekt deb ham yuritiladi). Ko'pincha lirik qahramon deganda muallif tushuniladiki, bu har doim ham

to'g'ri bo'lavermaydi. Zero, shoir o'zining kechinmalarini tasvirlashi ham, o'zganing ruhiyatiga kirgan holda o'sha "o'zga shaxs" kechinmalarini tasvirlashi ham mumkin. Bu o'rinda yana bir muhim masala bu she'rda hatto shoir o'z kechinmalarini tasvirlagan holda ham lirik qahramon bilan real shoir orasiga tenglik alomati qo'yib bo'lmaydi, chunki L.Tolstoy shunday demoqchi: "Har bir inson qalbida mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan barcha qalblar imkoniyat tarzida mavjuddir, shunga ko'ra, shoir o'zganing holatiga kirishi, ma'lum hayotiy jarayonda istalgan insonning kechinmasini his qilishi ham mumkin". Masalan, Cho'lponning "Men va boshqalar" she'ri garchi lirik "men" tilidan berilgan bo'lsa-da, uning lirik qahramoni shoir emas, balki o'zbek qizining umumlashma obrazi ekanligi o'yday ravshan ko'rib turibmiz.

Lirik turning belgilari haqida so'zlashdan oldin hamma adabiy turlar uchun umumiy bo'lgan belgilar ham, u yo bu adabiy tur uchungina xos bo'lgan xususiy belgilar ham borligini aytib o'tish kerak. Adabiy turlar qahramon obrazini yaratishning rang-barang usulidir. Epos, lirika va dramaturgiya badiiy adabiyotning tarixiy yashashi va taraqqiy etishi shakllaridir. Lirikaning tasvir predmeti hayotdir. Ammo u lirik qahramonning monologik kechinmasi, ichki dunyosi tarzida aks etadi.

Lirik turning mumtoz adabiyotda tutga o'rni benihoya kattadir. Ma'lumki, o'zbek mumtoz adabiyotida lirik tur va uning janrlari yetakchilik qiladi. Ular orasida g'azal janri alohida ajralib turadi. O'zbek mumtoz adabiyotini boshqa Sharq adabiyotlari kabi g'azal janrisiz tasavvur qilish biz uchun qiyin. Chunki bu janr XX asrgacha bo'lgan adabiyotimizda yetakchi mavqealardan birini egallab kelmoqda. Qaysi bir davr yoki zamonda yashaganligidan qat'iy nazar, o'tmish shoirlarining ijod namunalari, asarlari, devonlari ko'zdan kechirilsa, albatta ularning asosini g'azallar tashkil etadi. "G'azal yozishdan maqsad – deb yozadi Shamsiddin Muhammad Qays ar-Roziy, - jonga rohat va dilga halovat keltirishdir"¹ Shundan ham ko'rishimiz mumkinki, lirika mumtoz adabiyotning ajralmas qismi ekanligiga amin bo'lamiz.

Adabiyotshunos Q.Yo'ldoshevning: "Lirik turdagi asarlar uchun asosiy narsa tuyg'u va hissiyotga yo'g'rilgan hayotiy hikmat ifodasini berishdir. Lirikada voqealar tasviri, xarakter mantig'i emas, ruhiy holat tasviri, hissiyot ifodasi, tuyg'ularning samimiyati muhimdir. Chinakam lirik she'r tinglovchi yo o'quvchiga faqat zavq beribgina qolmay, uning emotsional-axloqiy imkoniyatlarni uyg'otadi, faoliyatga undaydi" – degani bejiz emas.² Lirik turda ijodkorning o'sha voqealikka bo'lgan bir lahzalik, oniy his-tuyg'ulari lirik asarda aks etadi. Ya'ni lirika qahramonning ruhiyati, kechinmalari tasvirlanadi. Uning muhim xususiyatlari ham shundan iboratdir.

¹ R.Orzibekov "O'zbek adabiyoti tarixi" Toshkent-2006, 137-bet.

² Q.Yo'ldoshev "Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy metodik asoslar" Toshkent – 1997, 235-bet.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Orzibekov “O‘zbek adabiyoti tarixi” Toshkent-2006, 137-bet.
2. Q.Yo‘ldoshev “Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta’lim maktablarida adabiyot o‘qitishning ilmiy metodik asoslar” Toshkent – 1997, 235-bet.
3. Hasanovna, D. M. (2023). ON THE TYPES OF RESULTS STRUCTURES EXPRESSED BY A SECONDARY PREDICAT. International Journal Of Literature And Languages, 3(03), 52-58.
4. Hasanovna, D. M. (2022). ASPECTUAL AND LEXICAL-SEMANTIC CLASSIFICATION OF VERB NOVATEUR PUBLICATIONS JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581-4230. ISSUE, 2, 25.
5. Ширинова, Н. Д., & Давлатова, М. Х. МОРФОЛОГИЧЕСКИЙ СПОСОБ РАЗГРАНИЧЕНИЯ ЗНАЧЕНИЙ ПРЕДМЕТНОСТИ И КАЧЕСТВЕННОСТИ В СИСТЕМЕ ЯЗЫКА. Muassis: Buxoro davlat universiteti TAHIRIYAT: Muharrirlar: MQ Abuzalova MA Bokareva NN Voxidova, 40.
6. Давлатова, М. (2023). Typology of expressive emotional relations in linguistics. Современные тенденции при обучении иностранному языку в XXI веке, 1(1), 172-178.
7. Hasanovna, D. M. (2021). Semantic Implementation of resultutive structures. novateur publications JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal.
8. Hasanovna, D. M. (2023). Occurrence of English Verb Predicates in the Functional-Semantic Field. American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education (2993-2769), 1(9), 518-524
9. Allambergenov, H. K., & Shamsiyev, D. I. (2024). Image Of Jabroil Alayhissalam In Navoyi's Me'rojnomas. SPAST Reports, 1(1).
10. Матякупов, С. (2010). Шериятда диалог яратиш маҳорати. Tashkent, “Муҳаррир.
11. Muqaddas, R. (2020). SHE’RIYATDA DIALOG YARATISHDA BADIY MAHORAT VA IJODIY INDIVIDUALLIK. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 1(1), 136-148.